# I. XIZMATLAR

2023- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida 15 044 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

**2023- yil 1- iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da**
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 12 814 tasi yoki 85,2 foizi kichik biznes sub‘ektlarini tashkil etadi.

2023- yil yanvar- iyun oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo‘yicha hajmi 5 239,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘sish 109,7 foizni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur‘atlari**

| | *Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *shundan,* | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | *Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *Ulushi, % da* |
| **Jami** | **5 239,1** | **109,7** | **4 940,7** | **107,5** | **2 957,6** | **105,8** | **56,5** |
| Navoiy sh. | 2 024,6 | 114,0 | 12 879,1 | 110,2 | 738,0 | 106,1 | 36,5 |
| Zarafshon sh. | 676,2 | 107,1 | 7 780,8 | 105,7 | 319,1 | 103,9 | 47,2 |
| G‘ozg‘on sh. | 15,6 | 108,8 | 1 714,4 | 107,6 | 9,1 | 107,9 | 58,3 |

| | *Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)* | *O'sish sur'ati, % da* | *Axoli jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'm)* | *O'sish sur'ati, % da* | *shundan,* | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | *Kichik biznes xajmi (mlrd. so'm)* | *O'sish sur'ati, % da* | *Ulushi, % da* |
| Karmana t. | 757,6 | 106,5 | 5 550,5 | 103,9 | 485,0 | 106,4 | 64,0 |
| Konimex t. | 118,0 | 108,4 | 3 154,4 | 107,0 | 101,5 | 107,2 | 86,0 |
| Qiziltepa t. | 498,4 | 109,2 | 3 119,0 | 107,4 | 382,4 | 106,4 | 76,7 |
| Navbahor t. | 299,7 | 106,8 | 2 509,9 | 105,0 | 222,4 | 105,5 | 74,2 |
| Nurota t. | 212,8 | 106,1 | 2 407,1 | 104,3 | 180,7 | 104,6 | 84,9 |
| Tomdi t. | 63,0 | 105,6 | 3 985,3 | 104,2 | 56,2 | 104,6 | 89,3 |
| Uchquduq t. | 169,8 | 106,7 | 4 321,9 | 104,8 | 137,4 | 104,9 | 80,9 |
| Xatirchi t. | 403,4 | 107,0 | 1 915,5 | 105,0 | 325,8 | 106,5 | 80,7 |



### Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

| | mlrd. so‘m | o‘sish sur‘ati, % da | yakunga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Jami xizmatlar** | **5 239,1** | **109,7** | **100,0** |
| *shu jumladan:* xizmat turlari bo‘yicha | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmati | 211,4 | 124,3 | 4,0 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 219,5 | 126,8 | 23,3 |
| transport xizmati | 809,8 | 98,0 | 15,5 |
| *shu jumladan: avtotransport xizmatlari* | *712,8* | *102,6* | *13,6* |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 346,2 | 107,1 | 6,6 |
| savdo xizmatlari | 1 579,3 | 104,9 | 30,1 |
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar | 84,3 | 102,0 | 1,6 |
| ta‘lim sohasidagi xizmatlar | 186,6 | 123,7 | 3,6 |
| sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 71,0 | 101,8 | 1,4 |
| ijara xizmatlari | 64,5 | 91,9 | 1,2 |
| kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari | 81,1 | 105,5 | 1,5 |
| boshqa shaxsiy xizmatlar | 145,3 | 103,3 | 2,8 |
| me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 256,9 | 105,2 | 4,9 |
| boshqa turdagi xizmatlar | 183,2 | 112,3 | 3,5 |

### Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari
*(2022- yil yanvar- iyunga nisbatan)*



Moliyaviy xizmatlar (126,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (124,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (123,7 %), boshqa xizmatlar (112,3 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (107,1 %)da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi**

*(2023- yil yanvar- iyun oylari)*




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (30,1 %), moliyaviy (23,3 %), transport (15,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (6,6 %) hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (4,9 %)ga to'g'ri keldi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**

| | *ming so'm* | *O'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|
| **Jami xizmatlar** | **4 940,7** | **107,5** |
| *shu jumladan:* xizmat turlari bo'yicha | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmati | 199,4 | 111,4 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 150,0 | 123,1 |
| transport xizmati | 763,6 | 98,3 |
| *shu jumladan: avtotransport xizmatlari* | *672,2* | *100,0* |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 326,5 | 113,8 |
| savdo xizmatlari | 1 489,4 | 103,5 |

| | ming so‘m | O‘sish sur‘ati, % da |
|---|---|---|
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar | 79,5 | 96,8 |
| ta‘lim sohasidagi xizmatlar | 176,0 | 107,9 |
| sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 67,0 | 103,3 |
| ijara xizmatlari | 60,8 | 87,2 |
| kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari | 76,5 | 107,8 |
| boshqa shaxsiy xizmatlar | 137,0 | 112,8 |
| me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 242,2 | 99,8 |
| boshqa turdagi xizmatlar | 172,8 | 105,3 |

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar** 2023- yil yanvar-iyun oylarida 4 940,7 ming so‘mni yoki 2022- yil yanvar- iyunga nisbatan o‘sish sur‘ati 107,5 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida savdo xizmatlari (1 489,4 ming so‘m), moliyaviy xizmatlar (1 150,0 ming so‘m) hamda transport xizmatlari (763,6 ming so‘m) yuqori ulushni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘atlari, % da**



Aholi jon boshiga koʻrsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar (123,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (113,8 %), shaxsiy xizmatlar (112,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,4 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (107,9 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash boʻyicha xizmatlar (107,8 %) va savdo xizmarlari (103,5 %)da oʻsish surʻati yuqori boʻldi.

Ushbu koʻrsatkich boʻyicha Navoiy shahri yetakchi oʻrinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 12 879,1 ming soʻmga yetdi. Zarafshon shahar (7 780,8 ming soʻm) va Karmana (5 550,5 ming soʻm) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi koʻpaygan. Gʻozgʻon shahar (1 714,4 ming soʻm), Xatirchi (1 915,5 ming soʻm) va Nurota (2 407,1 ming soʻm) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini koʻrishimiz mumkin.

**Aholi jon boshiga koʻrsatilgan xizmatlar hajmi, ming soʻm**



## Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo‘lgan sohalar

| *T/r* | *Iqtisodiy faoliyat turlari* | *Hajmi mlrd. so‘m* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *Jamiga nisbatan ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|
| | **Jami – xizmatlar** | **5 239,1** | **109,7** | **100,0** |
| **1** | **Yashash va ovqatlanish xizmatlari** | **346,2** | **107,1** | **6,6** |
| | shundan: | | | |
| | Yashash bo‘yicha xizmatlar | 38,4 | 135,0 | 0,7 |
| | Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo‘yicha xizmatlar | 307,8 | 104,4 | 5,9 |
| **2** | **Moliyaviy xizmatlar** | **1 219,5** | **126,8** | **23,3** |
| | shundan: | | | |
| | Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar | 1 107,4 | 125,1 | 21,1 |
| | Sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha xizmatlardan tashqari | 93,9 | 158,4 | 1,8 |
| | Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar | 18,2 | 97,0 | 0,4 |
| **3** | **Transport xizmatlari** | **809,8** | **98,0** | **15,5** |
| | shundan: | | | |
| | Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar | 718,8 | 102,4 | 13,7 |
| | Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari | 81,0 | 70,9 | 1,6 |
| | Pochta va kurerlik xizmatlari | 10,0 | 102,6 | 0,2 |
| **4** | **Savdo xizmatlari** | **1 579,3** | **104,9** | **30,1** |
| | shundan: | | | |
| | shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar | 154,1 | 114,5 | 2,9 |
| | Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) | 142,3 | 106,6 | 2,7 |
| | Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar | 1 282,9 | 103,6 | 24,5 |
| **5** | **Boshqalar** | **1 284,3** | **106,7** | **24,5** |

**2023- yil yanvar- iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi**




Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 1 579,3 mlrd. so‘mga yetib, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 30,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 81,2 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni ta‘mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda) xizmatlari esa 9,8 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) 9,0 foizni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar- iyun oylarida savdo xizmatlarining tarkibi**

